YANGI O'ZBEKISTONDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK SOHASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH HAMDA KOMPLEKS TIZIMLASHTIRISH	966
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	
XIZMATLAR KO'RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSIYA FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH: IQTISODIY TAHLIL VA ISTIQBOLLI TAVSIYALAR	971
Xudayberdiyeva Nargiza Nizomiddin qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	976
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSION MAHSULOTLARNI ISHLAB CHIQRISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	981
Mirzayev Kobil Nosirjonovich	



PUL AYLANMASINI TASHKIL QILISHNING XORIJ TAJRIBASI VA O'ZBEKISTONDA FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI.....	987
Gadoyev So'hrob Jumakulovich	
MARKETING VA TOVAR STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	993
Ibadullayeva Sevara Allashukurovna, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
PILLACHILIK SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA VA DAVLAT KO'MAGIGA OID METODOLOGIK YONDASHUVLAR	998
Xudoykulov Mamarasul Radjabovich	
SURXONDARYO VILOYATIDAGI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING QURILISH SOHASIDAGI ULUSHINING TREND MODELLARI ORQALI TAHLILI	1005
Mamatkulova Xurshida Nasrullayevna	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASES OF TEXTILE PRODUCTS MARKET SEGMENTATION	1012
Ibaydullaeva Feruza Kholjuraevna	
O'ZBEKISTONNING JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHGA QARSHI KURASH TIZIMIGA SUN'YI INTELLEKTNI INTEGRATSIYASI: BANK SEKTORIDA JORIY ETISHNING POTENSIALI VA TO'SIQLARINI BAHOLASH	1018
Rashidov Avazbek Raximovich	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	1025
Shermatov Sirojiddan Xaydarovich	
РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В УСОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ КОМПОНЕНТОВ ПРОЕКТА «БЕЗОПАСНЫЙ ГОРОД»	1029
Иминов Акбаржон Одилжонович	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA BOSHQARUV SALOHİYATINI OSHIRISH	1034
Tleubergenov Raxat Shahibaevich	
THE ROLE OF ESG IN ADVANCING CORPORATE REFORMS IN UZBEKISTAN	1038
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA MARKETING ROLI ORQALI IQTISODIY SIYOSATGA TA'SIRI.....	1043
Egamberdiyev Muzaffar	
DAVLAT BUDJETI JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISH YO'NALISHLARI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1046
Nosirov Islombek Xurram o'g'li	
O'ZBEKISTONDA JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'INING PROGRESSIV STAVKASINI JORIY ETISH MEKANIZMI	1052
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich, Xujamuradov Abrorbek Ro'zimurat o'g'li, Otabekov Otajon G'ayrat o'g'li, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KORXONANING MODDIY BAZASI	1060
Ozodova Shahzoda Ulug'bek qizi	
FINTECH-STARTAPLAR VA TIJORAT BANKLARI HAMKORLIGI: SINERGETIK INTEGRATSIYA VA INNOVATSION EKOTIZIM SHAKLLANISHI	1064
Normo'minov Temurbek Sheraliyevich	
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARINING MEHNATIGA HAQ TO'LASHDA YANGI YAGONA TARIF SETKASINI JORIY ETISH MASALALARI	1069
Oqiljonov Azizjon Olimjon o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ	1074
Хасилова Висола Шоохоровна	
HARD WORK, INDEBTEDNESS AND HOPE: A SOCIO-ECONOMIC LOOK OF MODERN LABOR	1078
Rakhmatullayev Sarvar Nazar o'g'li, Abdukarimova Muborak Sharaf qizi, Madrakhimova R. G.	
KORXONALARDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI VA ULARNI HISOBGA OLISH.....	1085
Muradova Minavvar Izzatullayevna	
O'ZBEKISTONDA AKT SOHASINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: SAMARADORLIKNI BAHOLASH VA RAQAMLASHTIRISHNING MUAMMOLARI	1089
Salibaev Xabibullo Negmatullaxanovich	



TIJORAT BANK KREDIT PORTFELINING SIFAT BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1094
G'aybullayev Odil Baxtiyarovich, Amanova Xurshida Inyatullaevna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA O'ZINI-O'ZI BAND QILISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI PASAYTIRISH MASALALARI	1099
Azimova Hulkar Egamberdiyevna	
СОКРАЩЕНИЕ БЕДНОСТИ КАК СОЦИАЛЬНАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕФОРМЫ УЗБЕКИСТАНА.....	1103
Амирджанова Ситора Суннат кизи	
IQTISODIY JARAYONLARNI BOSHQARISHDA OPTIMALLASHTIRISH MODELLARI VA ULARNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1108
Ibragimov Nodir Nusriddinovich	
MARKETINGDAGI ISTE'MOLCHILAR MOTIVATSIYASIDA NAFLILIK NAZARIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1113
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
AHOLI ZICH HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ANDIJON VILOYAT MISOLIDA	1119
Karimov Abdusamat Ismonovich, Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORINING SAVDO HAJMIGA TA'SIRINING TAHLILI	1125
Haydarova Mohichehra Xurram qizi	
BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	1131
Haydarov Husanboy Ahmadjon o'g'li	
DAVLAT QARZINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI.....	1135
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA HISOBOT SANASIDAN KEYINGI HODISALAR AUDITI	1142
Muydinov Erkin Djamaldinovich	
AUTSORSING FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI	1148
Xamidov Anis Choriyevich	



AUTSORSING FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI

Xamidov Anis Choriyevich

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada autsorsing faoliyatini moliyalashtirish mexanizmlari iqtisodiy va moliyaviy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda autsorsing jarayonining kapital va operatsion xarajatlarga ta'siri, risklarni boshqarish imkoniyatlari, korxona likvidligi va investitsion samaradorlikka qo'shadigan hissasi yoritilgan. Shuningdek, autsorsingning moliyaviy tuzilmaga ta'siri hamda korxonalar uchun resurslardan foydalanish strategiyalarini optimallashtirishdagi o'rni ochib beriladi. Tahlillar asosida autsorsing xizmatlarining iqtisodiy samaradorligi va moliyalashtirishning eng maqbul yondashuvlari aniqlanadi.

Kalit so'zlar: autsorsing, moliyalashtirish mexanizmlari, operatsion xarajatlar, kapital xarajatlar, risklarni boshqarish, likvidlik, moliyaviy samaradorlik.

Abstract. This article examines the financing mechanisms of outsourcing activities from economic and financial perspectives. The study highlights the impact of outsourcing on capital and operational cost structures, risk management capabilities, liquidity levels, and investment efficiency of firms. Particular attention is paid to how outsourcing influences financial architecture and contributes to optimizing corporate resource allocation. Based on the analysis, the paper identifies the economic efficiency of outsourcing services and the most effective approaches to their financing.

Key words: outsourcing, financing mechanisms, operational costs, capital costs, risk management, liquidity, financial efficiency.

Аннотация. В статье анализируются механизмы финансирования аутсорсинговой деятельности с экономической и финансовой точек зрения. Исследование раскрывает влияние аутсорсинга на структуру капитальных и операционных затрат, возможности управления рисками, уровень ликвидности и инвестиционную эффективность предприятия. Особое внимание уделено воздействию аутсорсинга на финансовую архитектуру компании и его роли в оптимизации использования ресурсов. На основе анализа определяются экономическая эффективность аутсорсинговых услуг и наиболее целесообразные подходы к их финансированию.

Ключевые слова: аутсорсинг, механизмы финансирования, операционные затраты, капитальные затраты, управление рисками, ликвидность, финансовая эффективность.

KIRISH

So'nggi yillarda iqtisodiyotning turli tarmoqlarida ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish va raqobat ustunligini shakllantirish maqsadida autsorsing mexanizmlaridan foydalanish tendensiyasi sezilarli darajada kuchaymoqda. Global iqtisodiy integratsiya jarayonlari, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va mehnat bozorida tarkibiy o'zgarishlar korxonalarni asosiy bo'lmagan funksiyalarni tashqi ijrochilarga topshirish orqali resurslarni qayta taqsimlashga undamoqda. Autsorsing korxonalarga faoliyat jarayonlarini moslashuvchan boshqarish, operatsion samaradorlikni oshirish hamda moliyaviy oqimlarni maqsadli yo'naltirish imkonini yaratadi.

Autsorsing faoliyatini moliyalashtirish masalasi esa nafaqat xizmat ko'rsatuvchi va buyurtmachi o'rtasidagi shartnoma munosabatlarini, balki xarajatlar tuzilmasi, risklarni boshqarish mexanizmlari va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash strategiyalarini ham qamrab oladi. Moliyalashtirishning to'g'ri yo'lga qo'yilishi korxona uchun autsorsing xizmatlarining iqtisodiy samaradorligini aniqlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Xususan, xizmatlar qiymatini shakllantirish, xarajatlarni rejalashtirish, pul oqimlarini boshqarish, investitsion ehtiyojlarni baholash va moliyaviy risklarni kamaytirish kabi jarayonlar autsorsingning moliyaviy mexanizmlarini chuqur tahlil qilishni talab etadi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, O'zbekistonda sanoat, xizmatlar sohasi, logistika, IT va biznes jarayonlarini boshqarish kabi yo'nalishlarda autsorsing amaliyoti kengayib bormoqda. Bunda korxonalar uchun autsorsingning qaysi moliyalashtirish modeli samaraliroq ekani, resurslarni qay tarzda optimallashtirish



mumkinligi va moliyaviy barqarorlikni saqlagan holda xizmatlar doirasini kengaytirish masalalari muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois outsorsing faoliyatini moliyalashtirish mexanizmlarini tadqiq etish korxonalar strategik boshqaruvini takomillashtirish, moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash va bozor sharoitlariga moslashuvchanlikni oshirish imkonini beradi.

Mazkur maqolaning maqsadi – outsorsing faoliyatini moliyalashtirish mexanizmlarini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish, mavjud moliyalashtirish modellarini solishtirish hamda korxonalar uchun optimal moliyaviy strategiyalarni taklif etishdan iborat. Bu esa korxonalarning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Autsorsing faoliyatini moliyalashtirishga oid ilmiy izlanishlar korxonalar uchun bu jarayonning nafaqat operatsion, balki strategik va moliyaviy ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Xalqaro tadqiqotlar orasida Choi tomonidan o'tkazilgan izlanishlarda outsorsing qarorlari moliyaviy cheklolarga sezilarli darajada bog'liq ekanini ta'kidlanadi. Uning fikricha, moliyaviy resurslari cheklangan korxonalar asosiy bo'lmagan funksiyalarni tashqi ijrochilarga topshirish orqali pul oqimlarini optimallashtirishga intiladilar. Bu jarayon operatsion moslashuvchanlikning oshishi va investitsiya xavflarining kamayishi bilan izohlanadi.

Kapital tuzilmasi outsorsing qarorlariga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganishda Kanatasning tadqiqotlari muhim o'rin tutadi. U outsorsingga moyillik korxonaning qarz yukiga bevosita bog'liqligini ko'rsatib, qarz darajasi past bo'lgan korxonalar bu mexanizmni ko'proq qo'llashini aniqlagan. Bu xulosa outsorsingni moliyalashtirish strategiyasini ishlab chiqishda kapital strukturasi, riskga moyillik va likvidlik darajasini birgalikda baholash zarurligini bildiradi.

Autsorsingning moliyaviy samaradorligini baholash mexanizmlari bo'yicha Tsygalov va hamkorlarining izlanishlari alohida e'tiborga molik. Ular korporativ outsorsingni qiymat yaratuvchi moliyaviy mexanizmlar bilan bog'lagan holda kompaniya qiymatini oshirishga qaratilgan modelni taklif qilgan. Ularning yondashuvi outsorsingni faqat xarajatlarni qisqartiruvchi vosita emas, balki korxonaning uzoq muddatli qiymatini oshirishga xizmat qiluvchi moliyaviy strategiya sifatida baholash zarurligini ta'kidlaydi.

Autsorsingni moliyalashtirish jarayonida zamonaviy moliyaviy instrumentlar qo'llanishi bo'yicha Koval olib borgan tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega. U moliyaviy outsorsing konsepsiyasi orqali ekologik va innovatsion loyihalarni amalga oshirishda moliyaviy cheklolarni kamaytirish mumkinligini ko'rsatgan. Bunday yondashuv outsorsingning moliyalashtirish bilan bog'liq yangi imkoniyatlarini va korxonalarning tashqi xizmatlar orqali moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatini kengaytiradi.

Shuningdek, outsorsingning moliyaviy rivojlanishga ta'siri bo'yicha Liang tomonidan o'rganilgan masalalar ham e'tiborga loyiq. U shartnoma xarajatlari, ijro intizomi va risklarni baholashdagi zaifliklar korxonaning outsorsingdan foydalanish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatishini asoslab bergan. Bu yondashuv moliyalashtirish mexanizmlarini shakllantirishda risk menejmenti va shartnoma siyosatini qayta ko'rib chiqish zarurligini anglatadi.

Autsorsing biznes modellarining iqtisodiy samaradorligi bo'yicha Kulembayeva tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham outsorsingning moliyaviy natijalarini har tomonlama baholash zarurligini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, outsorsingdan eng yuqori samaradorlikni ta'minlash uchun moliyaviy, operatsion va boshqaruv omillari birgalikda o'rganilishi lozim. Bu xulosa korxonalar uchun optimal outsorsing strategiyasini tanlashda moliyaviy mexanizmlarning asosiy ahamiyatga ega ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Moliyalashtirish moslashuvchanligining outsorsing qarorlariga ta'siri bo'yicha Di Corato tomonidan ishlab chiqilgan model esa outsorsingning moliyaviy-ekonomik mohiyatini chuqurroq tushunish imkonini beradi. U moliyalashtirish moslashuvchanligi oshgan sari outsorsing orqali risklarni kamaytirish va xarajatlarni optimallashtirish imkoniyatlari kengayishini ko'rsatadi.

Ushbu ilmiy manbalar umumiy tarzda outsorsingni moliyalashtirish mexanizmlari korxonaning kapital strukturasi, risklarga munosabati, shartnoma siyosati, likvidlik darajasi va strategik maqsadlari bilan chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatadi. Outsorsingni samarali moliyalashtirish uchun korxonalar xarajatlarni qisqartirish va operatsion moslashuvchanlikka erishish bilan bir qatorda, qiymat yaratishga qaratilgan uzoq muddatli moliyaviy strategiyalarni ham shakllantirishi lozim.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda outsorsing faoliyatini moliyalashtirish mexanizmlarini o'rganish maqsadida xalqaro ilmiy bazalar, rasmiy statistika ma'lumotlari va korxonalar hisobotlaridan olingan ochiq manbalar tahlil qilindi. Ma'lumotlar taqqoslama tahlil, kontent tahlili va tendensiyalarni aniqlash usullari orqali qayta ishlanib, outsorsingning moliyaviy samaradorligini baholovchi mezonlar aniqlashtirildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Autsorsing faoliyatini moliyalashtirish korxonalar operatsion jarayonlarini optimallashtirish, xarajatlarni qisqartirish va boshqaruv samaradorligini oshirish orqali raqobatbardosh bo'lishga intilayotgan zamonaviy iqtisodiyotda muhim strategik yo'nalish sifatida shakllanmoqda. Autsorsing nafaqat funksional jarayonlarni tashqi tashkilotlar zimmasiga topshirish, balki korxonaning moliyaviy tuzilmasini qayta ko'rib chiqish, risklarni optimallashtirish, likvidlikni ta'minlash va kapitaldan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini yaratadigan moliyaviy mexanizm sifatida ham qaraladi. Shu bois autsorsingning moliyalashtirish modeli, uning tarkibiy elementlari, moliyaviy oqimlar taqsimoti va iqtisodiy samara ko'rsatkichlari korxonalar uchun fundamental ahamiyat kasb etadi. Korxona autsorsingga murojaat qilganda, odatda ikki asosiy motivatsiya kuzatiladi: birinchisi operatsion xarajatlarni kamaytirish bo'lsa, ikkinchisi kapital resurslarni asosiy faoliyatga yo'naltirish orqali investitsion imkoniyatlarni kengaytirishdir.

Autsorsingning moliyalashtirish mexanizmlarida xarajat tuzilmasining o'zgarishi markaziy o'rinda turadi. Korxonalar odatda autsorsingdan foydalanish orqali doimiy xarajatlarni o'zgaruvchan xarajatlarga aylantiradi, bu esa moliyaviy moslashuvchanlikni kuchaytiradi. Masalan, IT xizmatlari, logistika yoki buxgalteriya kabi yo'nalishlarni tashqi bajaruvchilarga topshirish orqali korxonalar kapital xarajatlar, amortizatsiya, malakali kadrlar bilan bog'liq doimiy xarajatlarni kamaytirishi mumkin. Natijada korxona moliyaviy majburiyatlari qisqaradi, boshqaruv xarajatlari optimallashtiriladi va pul oqimlarining barqarorligi oshadi. Moliyalashtirish nuqtayi nazaridan bu jarayon, bir tomondan, korxona balansida aktivlar ulushining kamayishiga olib keladi, ikkinchi tomondan esa operatsion xarajatlar modelini yanada bashorat qilinadigan va boshqariladigan shaklga o'tkazadi.

Autsorsingning moliyaviy mexanizmlarini samarali joriy etishda risklarni boshqarish tizimi alohida ahamiyatga ega. Korxona autsorsing bozoriga kirganda, xizmat ko'rsatuvchining moliyaviy barqarorligi, operatsion ishonchligi, shartnoma shartlariga rioya qilishi va majburiyatlarni bajarish qobiliyatini baholashi zarur. Chunki autsorsing kelishuvlari orqali risklarning ma'lum qismi tashqi ijrochiga o'tadi, biroq bu korxonani barcha xavflardan to'la xalos etmaydi. Shartnoma risklari, kutilmagan xarajatlar, xizmat sifati pasayishi yoki uzilishlar kabi xavflar autsorsingning moliyaviy natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli autsorsingni moliyalashtirish mexanizmlarida risklarni sug'urtalash, penalti tizimlari, xizmat sifatini nazorat qilish ko'rsatkichlari va monitoring mexanizmlarining mavjudligi muhim (1-jadval).

1-jadval. Autsorsing faoliyatini moliyalashtirish mexanizmlarining an'anaviy ichki bajaruv bilan solishtirilgan asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	An'anaviy ichki bajaruv (In-house)	Autsorsing mexanizmi
Kapital xarajatlar (CapEx)	Yuqori: uskunalar, texnologiya, xodimlar xaridi zarur	Past: asosiy xarajatlar xizmat ko'rsatuvchi zimmasida
Operatsion xarajatlar (OpEx)	Doimiy va boshqaruv qiyin	Bashorat qilinadigan, shartnoma asosida
Likvidlik ta'siri	Likvidlik pasayishi mumkin, chunki sarmoya ichki jarayonlarga yo'naltiriladi	Likvidlik yaxshilanadi, kapital asosiy faoliyatga yo'naltiriladi
Risk darajasi	Korxona zimmasida yuqori risk	Risklarning bir qismi xizmat ko'rsatuvchiga o'tadi
Moslashuvchanlik	Past: jarayonlar qattiq bog'langan	Yuqori: xizmat hajmini tez o'zgartirish mumkin
Texnologik yangilanish	Korxonaning o'z mablag'iga bog'liq	Xizmat ko'rsatuvchi doimiy modernizatsiya qiladi
Xarajatlarning boshqarilishi	O'zgaruvchan va rejalashtirish qiyin	Xizmat narxi oldindan kelishilgan
Moliyaviy samaradorlik	Ko'proq xarajat talab qiladi	Xarajatlarni optimallashtiradi va samaradorlikni oshiradi

Jadvalda autsorsing mexanizmlarining moliyaviy jihatdan an'anaviy ichki bajaruvga nisbatan afzalliklari tizimli ravishda solishtirilgan. Eng muhim farq kapital xarajatlar tuzilmasida namoyon bo'ladi: ichki bajaruvda korxona texnologiya, uskunalar va kadrlar uchun katta kapital mablag' sarflashga majbur bo'lsa, autsorsingda ushbu xarajatlar xizmat ko'rsatuvchi zimmasiga o'tadi. Bu korxonaning likvidligini oshiradi va investitsion imkoniyatlarni kengaytiradi. Operatsion xarajatlar ham autsorsingda boshqariladigan, shartnoma asosida barqaror shaklga ega bo'lib, moliyaviy rejalashtirishni soddalashtiradi. Jadvalda risklarning bir qismi autsorsing ko'rsatuvchisiga o'tishi ko'rsatilgan bo'lib, bu korxona uchun xavflarni diversifikatsiya qilish imkonini beradi. Texnologik yangilanishlar bo'yicha autsorsing ustunligi aniq, chunki xizmat ko'rsatuvchi doimiy modernizatsiya



bilan shug'ullanadi. Umuman, jadval autsorsingning moliyaviy samaradorlikni oshirish, xarajatlarni optimallashtirish va moslashuvchanlikni kuchaytirishdagi ahamiyatini yaqqol ko'rsatadi.

Moliyaviy nuqtayi nazardan xizmatlar qiymatini shakllantirish ham autsorsing samaradorligining asosiy omillaridan biridir. Xizmat ko'rsatish qiymati, odatda, autsorsing tashkilotining resurslari, texnologik darajasi, xizmatlar paketi, kadrlar malakasi va bozor sharoitlariga qarab belgilanadi. Korxona autsorsingga murojaat qilganda, xizmat qiymatini faqat xarajatlar bilan emas, balki qo'shimcha qiymat yaratish qobiliyati bilan ham baholashi lozim. Autsorsing tashkiloti ko'pincha yuqori texnologiyalardan foydalanadi, jarayonlarni avtomatlashtiradi yoki ixtisoslashgan xizmatlarni taqdim etadi. Bu esa mijoz-korxona uchun xarajatlarni kamaytirish bilan birga, ish samaradorligi va xizmat sifati oshishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli autsorsingni moliyalashtirish mexanizmlari xizmatlar qiymati va ularning iqtisodiy natijalarini solishtirishga asoslanadi.

Autsorsingning moliyaviy mexanizmlarida pul oqimlarini boshqarish muhim rol o'ynaydi, chunki autsorsing xizmatlari uchun to'lovlar odatda shartnoma muddati davomida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Bu esa korxona uchun to'lov intizomi, likvidlikni rejalashtirish va pul oqimlari balansini boshqarish imkonini beradi. Autsorsing xizmatlari uchun to'lovlar odatda oylik yoki choraklik hisob-kitoblarga asoslanadi, bu esa investitsion xarajatlar bilan bog'liq keskin pul chiqimlarini kamaytiradi. Korxona katta kapital qo'yilmalar talab etiladigan jarayonlarni autsorsingga o'tkazish orqali o'zining pul oqimlarini barqaror saqlab qolishi mumkin, bu esa moliyaviy barqarorlikni kuchaytiradi.

Autsorsing mexanizmlarini moliyalashtirishda kapital resurslardan foydalanish samaradorligi ham muhim omil hisoblanadi. Korxona o'zining asosiy bo'lmagan jarayonlarini tashqi ijrochilarga topshirganida kapitalni asosiy faoliyatga yo'naltirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Masalan, ishlab chiqarish korxonasi logistika, kadrlar boshqaruvi yoki IT xizmatlarini autsorsing orqali amalga oshirsa, tejangan kapitalni ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, innovatsiyalar joriy etish yoki eksport salohiyatini oshirishga yo'naltirishi mumkin. Bu jarayon korxonaning kapital samaradorligini oshiradi va investitsion faoliyatini faollashtiradi. Shunday qilib, autsorsing korxonalarga investitsion strategiyalarni yanada samarali yuritish imkonini beradi.

Moliyalashtirish mexanizmlarining yana bir muhim yo'nalishi autsorsingning iqtisodiy samaradorligini baholashdir. Bu jarayon odatda bir nechta ko'rsatkichlar asosida amalga oshiriladi: xarajatlar tejalishi, xizmat sifati, vaqt tejalishi, texnologik daraja, risklarning kamayishi va korxona qiymatining oshishi. Korxona autsorsingdan foydalanishdan oldin va keyin o'zining xarajatlar tuzilmasi va operatsion natijalarini solishtirishi lozim. Autsorsing orqali erishilgan xarajatlar tejalishi ko'pincha uch yo'l bilan yuzaga keladi: mehnat xarajatlarning qisqarishi, texnologik xarajatlarning kamayishi va operatsion xarajatlarning optimallasuvi. Ko'plab tadqiqotlarda autsorsingning samaradorligi aynan shu uchlik asosida baholanadi.

Autsorsing faoliyatini moliyalashtirish mexanizmlarida shartnoma boshqaruvi ham muhim ahamiyatga ega. Shartnoma moliyaviy majburiyatlar, xizmat ko'rsatish standartlari, to'lov shartlari, risklarni taqsimlash, jarima va rag'bat tizimlari kabi elementlarni o'z ichiga oladi. Shartnomada korxona manfaatlarini maksimal himoya qilish uchun moliyaviy kafolatlar, xizmat darajasini belgilovchi ko'rsatkichlar (SLA), xizmat uzluksizligini ta'minlovchi mexanizmlar va nazorat tartiblari ko'rsatiladi. Shartnoma moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, autsorsing jarayonining sifat va narx jihatidan barqarorligini kafolatlaydi.

Autsorsingning moliyaviy mexanizmlariga yana bir muhim omil sifatida soliq imtiyozlari va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimlarini kiritish mumkin. Bir qator mamlakatlarda autsorsing xizmatlari uchun soliq yengilliklari, investitsiya imtiyozlari yoki kreditlar taqdim etiladi. Bu jarayon xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalarni rivojlanishga undaydi va korxonalar uchun autsorsing xarajatlarni kamaytiradi. O'zbekistonda ham IT autsorsingi bo'yicha soliq imtiyozlarining mavjudligi autsorsing bozorining kengayishiga sabab bo'ldi va xizmatlar eksporti hajmini oshirdi. Autsorsingni moliyalashtirish jarayonida davlat qo'llab-quvvatlovi ham muhim rol o'ynashi mumkin, ayniqsa strategik tarmoqlar, innovatsion xizmatlar va eksportga yo'naltirilgan faoliyatlarda.

Autsorsingning moliyaviy mexanizmlarini tahlil qilgan holda shuni aytish mumkinki, ushbu modelning samaradorligi korxonalar uchun moslashuvchanlik darajasi, bozor sharoitlari, texnologik imkoniyatlar, xizmat ko'rsatuvchi ijrochilarning professionalligi va moliyaviy boshqaruv tizimining yetukligiga bog'liq. Autsorsingning muvaffaqiyati ko'proq korxonaning o'z strategiyasini to'g'ri belgilashi, moliyaviy oqimlarni aniq rejalashtirishi, risklarni tahlil qilishi va xizmat ko'rsatuvchilarni to'g'ri tanlashi bilan belgilanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar autsorsing faoliyatini moliyalashtirish korxonalarga xarajatlarni optimallashtirish, kapital resurslardan samarali foydalanish va operatsion jarayonlarni barqarorlashtirish imkonini berishini ko'rsatadi. Autsorsing modeli moliyaviy moslashuvchanlikni kuchaytirib, korxonalarni asosiy bo'lmagan xarajatlardan xalos qiladi va strategik ustuvor yo'nalishlarga ko'proq mablag' yo'naltirishga sharoit yaratadi. Shartnoma boshqaruvi, risklarni kamaytirish mexanizmlari, xarajatlar tuzilmasini to'g'ri baholash va xizmat sifati ustidan nazorat autsorsingning moliyaviy samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. Shu bois autsorsingni faqat xarajatlarni



tezlash vositasi emas, balki korxona qiymatini oshirishga xizmat qiluvchi strategik moliyaviy instrument sifatida ko'rish zarur.

Kelajakda outsorsing sohasini yanada rivojlantirish uchun korxonalar moliyaviy boshqaruv tizimlarini modernizatsiya qilish, shaffof to'lov mexanizmlarini joriy etish, xizmat ko'rsatuvchilarni baholash mezonlarini takomillashtirish va raqamli yechimlardan keng foydalanishlari maqsadga muvofiqdir. Davlat tomonidan IT outsorsingi, logistika va biznes jarayonlarini tashqi boshqaruvga o'tkazishga doir soliq imtiyozlarini kengaytirish, xizmatlar eksportini qo'llab-quvvatlash va malakali kadrlar tayyorlash tizimini kuchaytirish ham sohaga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Outsorsingning iqtisodiy samaradorligi aynan moliyalashtirish mexanizmlarining to'g'ri shakllanishiga bog'liq bo'lgani uchun korxonalar strategik qarorlar qabul qilishda iqtisodiy natijadorlik, risklar va moliyaviy barqarorlikni kompleks baholashlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M.E. Porter. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. – New York: Free Press, 1985.
2. R.M. Grant. Contemporary Strategy Analysis. – Oxford: Blackwell Publishing, 2013.
3. P. Kotler, G. Armstrong. Principles of Marketing. – New Jersey: Pearson Education, 2018.
4. D. outsourcing: BPO and IT Services Management. – London: Routledge, 2016.
5. M. Lacity, L. Willcocks. Business Process Outsourcing: The Competitive Advantage. – London: Palgrave Macmillan, 2014.
6. C. Quinn, F. Hilmer. Strategic Outsourcing: Leveraging Core Competencies. – New York: Wiley, 1994.
7. M. Greaver. Strategic Outsourcing: A Structured Approach to Outsourcing Decisions. – New York: AMACOM, 1999.
8. L. Di Corato. Financing Flexibility and Outsourcing Decisions. – Padova: University of Padova Press, 2017.
9. A.E. Tsygalov, E.E. Dorozhkina. Corporate Outsourcing Evaluation Financial Mechanisms. – Moscow: Plekhanov Publishing, 2018.
10. J.J. Choi. Outsourcing Flexibility Under Financial Constraints. – Amsterdam: Elsevier, 2021.
11. G. Kanatas. Outsourcing and Financing Decisions in Industry Equilibrium. – Oxford: Oxford University Press, 2016.
12. S. Youngdahl, R. Ramaswamy. Service Outsourcing: A Critical Evaluation. – New York: McGraw-Hill, 2008.
13. R. Baldwin. The Great Convergence: Information Technology and the New Globalization. – Cambridge: Harvard University Press, 2016.
14. V. Koval. Financial Outsourcing for Environmentally Active Enterprises. – Basel: MDPI Publishing, 2023.
15. F. Kulembayeva. Economic Efficiency of Outsourcing Business Models. – Berlin: Springer, 2022.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
